

## YOSH AVLODNI TARBIYASIDA MUSIQIY-NAZARIY BILIMLARNING AHAMIYATI

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*“Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrasi professori v.b.*

**Botirova Xilola Tursunbayevna**

*Andijon shahar 1-son BMSM o‘qituvchisi*

**Ikramova Zamiraxon**

*[ikramovazamirakxon05@gmail.com](mailto:ikramovazamirakxon05@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘quvchilarni musiqiy-nazariy bilimlarini shakllantirish masalalari, tadqiqotchi olimlarning fikr mulohazalari, yosh avlodni musiqiy ongini tarbiyalashda musiqiy-nazariy bilimlarni shakllantirish kabi metodik tavsiyalar berib o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda musiqiy ta’lim olish jarayonida o‘qituvchi va ota-onan hamkorligining muhim ahamiyat kasb etishi kabi masalalar yoritib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kamolot, tarbiya, bilim, musiqiy-nazariy bilim, musiqiy savodxonlik.

## ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

*Андижанский государственный педагогический институт, и.о. профессор,  
“Кафедры изобразительного искусства и музыкального образования”*

*Ботирова Хилола Турсунбаевна*

*Андижанской городской детской музыкально-художественной школы № 1,  
учитель Икрамова Замирахон Бахтияровна,*

**Аннотация:** В данной статье даны методические рекомендации по вопросам формирования музыкально-теоретических знаний учащихся, мнения ученых-исследователей, формирование музыкально-теоретических знаний в воспитании музыкального сознания подрастающего поколения. В качестве альтернативы освещаются такие вопросы, как важность сотрудничества учителя и родителей в процессе музыкального образования.

**Ключевые слова:** Зрелость, воспитание, знания, музыкально-теоретические знания, музыкальная грамотность.

## THE IMPORTANCE OF MUSICAL-THEORETICAL KNOWLEDGE IN THE UPBRINGING OF THE YOUNGER GENERATION

*Andijan State Pedagogical Institute, acting professor, independent researcher,  
“Department of Fine Arts and Music Education” Botirova Khilola Tursunbayevna  
Teacher of children's music and Art School No. 1 of Andijan city Ikramova  
Zamirakhan Bakhtiyorovna*

**Annotation:** This article provides methodological recommendations on the formation of musical and theoretical knowledge of students, the opinions of research scientists, the formation of musical and theoretical knowledge in the education of musical consciousness of the younger generation. Alternatively, issues such as the importance of teacher-parent collaboration in the process of music education are highlighted.

**Keywords:** Maturity, upbringing, knowledge, musical theoretical knowledge, musical literacy.

### **Kirish.**

Kelajak avlodni kamolot sari yetaklashda ko‘plab omillar qatorida musiqiy-nazariy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon barcha boshqaruvchi tashkiliy qismlar va ularning bog‘liqligini tahlil qilish, tanlash, loyihalash va nazorat qilish yo‘li bilan bilim darajasini samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarish hamda bu borada tizimli yondashuvini joriy etishni ifodalaydi. O‘quvchilarni musiqiy ongini tarbiyalashda musiqiy-nazariy bilimlarni shaklantirish, shu bilan bir qatorda bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borish talab etiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi[1.1]da “Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q” deb bildirgan fikrlari bugungi kunda o‘z samarali natijalarini berib kelmoqda.

### **Asosiy qism.**

Bugungi kunda musiqiy-nazariy bilimlarni rivojlantirish uchun umumta’lim maktablari hamda bolalar musiqa va san’at maktablarida o‘qituvchilar tomonidan ilmiy izlaniishlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda olimlar tomonidan yoritib o‘tilgan musiqa nazariyasi haqidagi fikrlariga to‘xtalib o‘tsak.

Grigoriy Fridkinni ta’kidlashicha musiqiy savodxonlikni oshirish uchun amaliy ko‘nikma kerak bo‘ladi, uni rivojlantirish uchun esa solfedjio fani chambarchas bog‘liq xolda birga olib boriladi [2.3].

Nima uchun solfedjio fani bog‘liq? degan savol tug‘ilishi tabiiy, mazkur fan nazariy bilimlarni amaliy bajarishda ko‘nikma vazifasini bajaradi.

Musiqiy-nazariy bilimlarni shakllantirishda doimiy mashqlar talab etiladi, mazkur mashqlarni dioimiy bajarishni odat qilishi talab etiladi[3.6].

Yon atrofimiz tovushlar bilan o‘ralganligi barchamizga ma'lum, bu tovushlarni ikki xil turga bo‘lish mumkin, musiqiy tovushlar va fizik tovushlar. Tebranishlar tartibsiz yoki muntazam vaqt oralig‘ida paydo bo‘lishi mumkin. Noqonuniy tebranishlar natijasida hosil bo‘lgan tovushlar shovqinli tovushlar, muntazam va takroriy tebranishlar natijasida hosil bo‘lgan tovushlar esa yoqimli tovushlar deyiladi[4.3].

### **1. Musiqaviy tovush - aniq balandlikka ega bolgan tovushlar.**

Masalan: musiqa asboblarining tovushlari, odam ovozi.

**2. Shovqinli tovush - aniq balandlikka ega bo‘lmagan tovushlar.** Musiqada shovqinli tovushlardan ham keng foydalaniladi; masalan, doyra, nog‘ora, baraban, tarelka, qayroq, qoshiq va h.k.laring tovushlari[5.3].

G‘arbiy Yevropada o‘rta asrlarda tovushlarni yozish uchun “nevma”lar (nevma - yunoncha “neuma” - mimik harakat, belgi) deb ataladigan alohida belgilar qo‘llanilib, ular tovushning aniq balandligini, uning cho‘zimini ko‘rsatmasdan, faqat melodik chiziqning yo‘nalishi haqida tasavvur hosil qilgan xolos[6.10].

Baxtiyor Azimovning “Ta’lim tarbiyaning uzviyligi” deb noimlangan maqolasida “musiqiy ta’lim nafaqat ma’naviy, axloqiy-estetik tarbiyani amalga oshiradi, balki, qo‘sinq va musiqa san’ati orqali yoshlarda komillikni, vatanimiz va uning go‘zal tabiatini, insonlarga bo‘lgan muhabbat, do‘stlik, birodarlik, tinchlik g‘oyalarini singdirish kabi vazifalarni bajarishda katta ahamiyat kasb etadi” deb o‘z fikrini bildirgan [7.19].

Bilim va ko‘nikmalarni idrok etish darajasini oshirish uchun o‘qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni o‘quvchilar o‘z bilim doirasida to‘g‘ri anglay olishlari kerak. Bu bilimlarni anglashlari uchun quyidagi mezonlar ko‘rsatib o‘tamiz: ijobiy hissiy munosabat; badiiy va estetik baholashning etarliligi.

O‘quvchilarni badiiy estetik didini oshirish uchun qurshab turgan olamni musiqa olami bilan aloqador ekanligini anglab yetishi uchun, ularni opera, teatr, balet, konsert zallariga muntazam borib turishi musiqiy ongini o‘sishida ko‘makchi vazifasini bajaradi.

Musiqa nazariyasi fanini o‘rganish o‘quvchilar uchun cholg‘u ijrochiligi fanidagi musiqiy asarlarni taxlil qilishda yordamchi vazifasini o‘taydi. Nazariy bilim musiqiy taxlilni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Musiqiy nazariy bilimlarni ketma-ketlikda rivojlantirib borish miyya faoliyatini rivojlanishiga ham ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Har kunlik nazariy o‘z ustida bajarilagan mashqlar, musiqiy asarni to‘g‘ri taxlil qilish, asarni sof kuylash, ritmik usullarni to‘g‘ri hisoblash kabi jarayonlarni

rivojlantirib boradi. Bugungi kunda nazariy bilimlarni o‘qitishda qulay o‘qitish vositalari mavjub bo‘lib, bu vositalar o‘qitishning saradorligini ta‘minlab kelmoqda.

Mazkur vositalar yordamida mavzuni oson va sodda o‘zlashtirishda o‘z samarasini beradi. O‘quvchilarga imkonи boricha darslarni ko‘rgazmali qurollardan, o‘qitishning zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda dars olib borilishi bugungi kunda zamon talabi hisoblanadi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur’at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifodalovchi vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushunchalar nazariyaning ildizlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan musiqiy nazariy bilimlarni doimiy ravishda rivojlantirib borish uchun muntazamlilik talab etiladi.

### **Hulosa.**

Hulosa qilib shuni aytish joyizki musiqiy nazariy bilimlarni shakllanishida o‘quvchilardan o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadli talab va uni bajarish ijobiy samaradorligini ko‘rsatadi. Bu borada o‘qituvchi va ota-onaning bevosita aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi uchun yaratib berilgan shart-sharoit kelajakda komil inson bo‘lib voyaga yetishishida o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Ba’zan oiladagi tarbiyaviy muhitning og‘irligi bolaga salbiy ta’sirini ko‘rsatibgina qolmay uning kelajakda o‘z ko‘zlagan maqsadiga to‘laqonli erishishiga to‘sinqinlik qiladi. Musiqiy bilimlarni shakllanishida oilaviy muhitning o‘rni katta hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi va ota-onalarning hamkorlikda olib boadigan ishlari o‘quvchi-yoshlarning kelajakda komil inson bo‘lib, o‘z Vataniga sodiq inson bo‘lishlarida muhim vositachilar hisoblanishadi. Donishmand xalqimiz aytganidek oilaning tinchligi yurt tinchligidir, bu oiladagi farzandlarning kelajakda barkamol shaxs bo‘lib kamol topishidan dalolatdir.

Shunday ekan biz o‘qituvchilar oldida turgan mashaqqatli lekin sharaflı kasbimizda, bilim berishda o‘z oldimizga ulkan maqsadlar qo‘ygan xolda barkamol, yetuk intelektual yoshlarni o‘quvchi-yoshlarni tarbiya qilishdek ulkan vazifani sharaf bilan bajarib, Vatanimiz oldida labbay deb javob berish barchamizning oldimizda turgan ulkan vazifalardan biridir. Shunday ekan o‘z bilimlarimizni yosh avlodga benuqson, ajdodlarimiz qoldirgan o‘lmas durdonalarni bezavol yetkazib berishda xizmat qilish barcha pedagog ustozlarning oldida turgan sharaflı vazifalardan biri deb hisoblaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni maktab ta‘limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi.
2. Фридкин Г. Практическое руководство по музыкальной грамоте. М., 1962 ст 3.
3. Б. Вахромеев «Элементарная теория музыки» Москва, 1961 г. Ст-6.

4. Fundamentals of Church Music Theory by James Tackett. Revised 2009. P-3.
5. Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. T., 2007. 3-b.
6. Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. T., 2007. 10-b.
7. Процессы реформирования системы музыкального образования. Материалы первой международной научно-практической конференции. Т., 2009. 19-б.

